

## BOLALARNING KOGNITIV JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHDA ERTAK VA PROEKTIV TESTLARNING AHAMIYATI

Andijon davlat pedagogika  
instituti Maktabgacha ta’lim  
fakulteti  
Sirtqi ta’lim 102-guruh talabasi  
Ergasheva Maftuna

**Annotatsiya:** Tezida maktabgacha ta’lim yoshidagi bola psixikasini o’rganish va rivojlantirishda proektiv testlarning ahamiyati va qo’llash yo’llari yoritib berilgan.

**Kalit so’zlar:** proektiv, psixik, terapevtik, xarakter, ruhiy bezovtalanish.

Bola ruhiyatini o’rganish va tahlil qilish psixologik xizmatning ahamiyatli jarayonlaridan biridir. Bu esa bola shaxsini o’rganishga qaratilgan yangi yo’l va vositalarni ishlab chiqish zaruratini keltiradi. O’tgan davr mobaynida bola shaxsini o’rganish uchun turli xil psixologik tadqiqot usullari va metodikalardan foydalanib kelinmoqda. Ularning bola shaxsini o’rganishdagi o’rni va vazifalari bir-biridan tafovutlanadigan va o’rganish yo’nalishi hamda predmetidan ko’ra farqlanishi mutaxassislarga ma’lum. Shunday bo’lsa-da, bola shaxsini o’rganishga qaratilgan metodikalardan foydalanishda bolaning yosh psixologik xususiyatlarini ham inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Proektiv testlar inson psixikasini o’rganishda o’ziga xos ahamiyatga ega. Masalan, maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv va shaxsiy xususiyatlarini o’rganishda proektiv metodikalardan samarali foydalanish mumkin. Quyida bola ruhiyatini o’stirishda ertak va proektiv metodikalardan foydalanishning ahamiyatli jihatlariga to’xtalib o’tamiz. Ertaklar insoniyat tarixiy va hayotiy tajribasining natijasida vujudga kelgan ijod maxsulidir. SHu sababli ertaklar kundalik turmushimizda bolalar tarbiyasi uchun keng qo’llaniladi. Hattoki bolalarning o’zlari ham ertak bilan faoliyatlarini uyg’unlashtirishga doimo shay turadilar. Bugungi kun psixodiagnostik tajribalari esa aynan shu jihatlarni hisobga olib, bolalarning psixologiyasini o’rganishda ertaklardan samarali foydalanishni taqozo etmoqda. Bizga ma’lumki, “Qizil shapkacha”, “Uyqudagi parizod”, “Bo’ri bilan echki bolalari”, “Qor malikasi”, “Dono qiz”, “Donishmand yigit” va boshqa shu singari ertaklarni bolalar yaxshi bilishadi. Umuman olganda ertaklar 17- asrdan boshlab kitob sifatida nashr etila boshlandi. Frantsiyada SH. Perro, 19 sarda Germaniyada aka-uka Grimmlar ko’plab ertak yozganlar. A. S. Pushkinning mashhur 5ta ertagi, O’zbek xalq og’zaki ijodidan “Zumrad va Qimmat”, “No’xotpolvon”, “Kenja botir” va boshqa turli xalqlarning milliy ertaklari bolajonlarning qalblaridan chuqur o’rin olgan. Ertaklar proektiv xarakterga ega bo’lib o’zlarida obrazli va simvolli xususiyatni ifodalaydi. Bolalar bu ertaklarni sevib o’qishlari pedagogik-psixologik tadqiqotlarda ham qayd etilgan.

Psixologik jihatdan proektiv testlar bolalarni kognitiv jarayonlari yetilganligini, psixologik tayyorgarligini yashirin jihatlarini ochib beradi. Ertaklar nafaqat rivojlantiruvchi ahamiyatga ega, balki bolalarning salomatligi uchun terapevtik jihatdan ham foydalidir. Maktabgacha ta’lim muassasasi psixologlari va maktab amaliyotchi psixologlari ertaklardan bolalarning maktabga tayyorligini tadqiq etish chog’ida foydalanishlari mumkin, albatta.

G’arbda ertaklar diagnostik xarakterga ko’ra insonning ongsizligini yoritishda tatbiq etilgan. Bu holatni Z.Freyd va K.Gustav Yung ishlarida uchratamiz. Tadqiqotchilar proektiv testlarni spetsifik xarakterini o’rganadilar. Ertaklarning “Bir bor ekan bir yo’q ekan...” kabi kirish so’zi bilan boshlanishi bolalarni ikkinchi olamga yetaklovchi sifatida tushuntiriladi. Ertaklardagi takrorlanuvchanlik bolalarni idrok ko’lamini kengayishiga olib borishini tadqiqotlar isbotladi.

Xarakter- ertaklarda doimo bir xil o’zgarib bormoqda. Tugallanish esa qahramonlarning baxtli hayot kechirishi bilan tugaydi. Yalmog’iz obrazi doimo salbiylik timsoli sifatida gavdalanadi. Freyd o’z ishlarida ertaklarning simvolik xarakteriga alohida e’tibor qaratdi va u orqali inson ruhiyatining yangi qirralarini ochishga erishdi. Freyd ertaklarni tahlil qilar ekan, ularni shaxs psixikasini dastlabki qismiga qaratilganligiga urg’u beradi.

**Ertakshunos olim Roxeym fikricha ertaklar tush ko’rish bilan yaqin turuvchi va o’zida to’rt vazifani mujassamlashtirganligi ta’kidlanadi:**

1. Bog’lovchi. 2. Transformatsiyalash. 3. Vositachilik. 4. Himoyalovchi.

Analitiklarning fikricha, ushbu to’rt jarayon bolalardagi nizoli ruhiy bezovtalanish holatlarini ochib berishda qo’l keladi. Masalan, “Qizil shapkacha” ertagida psixologik himoya mexanizmi mavjudligi ustida so’z boradi. Kichkina qizaloq bo’rining yomonligini bilmaydi va undan qo’rqmaydi. Bu bolalarda himoya, qo’rqmaslik mexanizmini shakllantiradi. Bundan tashqari Rorshax testi va TAT testlari bolalarni o’rganish uchun qulaydir.

Oxirgi 20-yil ichida yangi proektiv testlar yaratish borasida ishlar olib borildi. Misol uchun AQSHda ishlab chiqilgan TMST (tell me a story test), ya’ni menga hikoyani aytib ber degan test shular jumlasidandir. Bolalarga rasm berilib, izohlash talab etiladi. Bu esa bolalarning aqliy taraqqiyotidagi tafovutlarni yoritishga imkon beradi.

Aslida ertakli proektiv testlarning maqsadlari nimaga qaratilgan? Ularni quyidagi maqsad yo’nalishlariga ajratishimiz mumkin:

-Bolalarni kognitiv (bilish jarayonlari) rivojlanishidagi psixologik muammolarni aniqlaydi;

-Bolalardagi bezovtalik, konflikt (nizoli) holatini, fikrlash doirasini aniqlaydi.

-Psixoterapevtik maqsadlarda bola shaxsining dinamikasini aniqlashda.

Ayrim hollarda ertak testlari etnik muhitni hisobga olishni talab etadi. Fikrlarimizni konkretlashtirish maqsadida alohida ertak test ustida to’xtalib o’tamiz.

Masalan, “Qizil shapkacha” ertak testi 21 ta rasmiy karta va qahramonlarning 3 ta xulosa kartasidan iborat. Ushbu test qo’llanilayotganda psixolog quyidagi shartlarni bajaradi.

**Testni tatbiq etish sharoitida savollar quyidagicha beriladi:**

-Qizil shapkacha uydan chiqib ketganda, onasidan xafa bo’ldimi, u qo’rqdimi?

-Qizil shapkacha o’rmonga kirganda unga qiziqish bilan boqdimi yoki qo’rqdimi?

-Buvisining uyida bo’rini ko’rganda qo’rqdimi yoki xayratlanib qoldimi?

-Buvisini o’rnida bo’rini ko’rganda u o’zini qanday tutdi?

-Ertak yakunida qizil shapkacha o’zini yengil sezdimi yoki qayg’uga tushdimi? kabi savollar bilan murojaat etiladi.

Tadqiqot paytida qahramonlar rasmi aks ettirilgan kartochkalar tekshiriluvchi- bolalar qo’liga beriladi. Bolalarni psixologiyasini tahlil etishda ertak qahramonlari aks etgan 3 ta kartochka yordamida tahlil etilib, bolalar xususiyatlariga chizgilar beriladi.

**Masalan, qizil shapkacha testining tahlili:**

1-karta orqali - shaxsning kuchsizligi, hissiyotlari, baxtsizligi, tortinchoqligi va qo’rqoqlik singari xususiyatlari yoritiladi.

2-karta orqali – beg’uborlik, quvnoqlik, kamsuqumlik, psixologik sog’lomligi aniqlanadi.

3-karta esa boladagi xafalik, bezovtalanish, agressiv holatni ifodalaydi. Har bir ertak qahramoni shunday tahlil etiladi. MTM psixologi faqat metodikani qo’llash va uni tahlil etish bo’yicha yaxshi kasbiy tayyorgarlikka ega bo’lishi lozim.

Proektiv metodikalarni maktabgacha yosh bolalarda sinash ularning psixologik xususiyatlari, hissiy holatlarni va boshqa jihatlarni tadqiq etish uchun ancha qulay.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o’quvdasturi. Toshkent.: 2020.

2. Gaynazarova G.A. “Maktabgacha ta’limda innovatsion yondashuvlar”. “Innovatsion rivojlanish nashriyot- matbaa uyi”, Toshkent.-2020 y UO‘K:372.2(075). KBK 74.104, G 15 60 b
3. ВАҲАБОВА, Ў. (2023). ТУРЛИ ПСИХОДИАГНОСТИК МЕТОДИКАЛАРНИ ҚЎЛЛАШНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(1), 134-138.